

## QIPCHOQ LAHJASIDA OZIQ-OVQATGA XOSLANGAN SO'ZLARNING IRRODIATSIYASI

*Farangiz Abdurahmonova*

*Termiz davlat universiteti*

*O'zbek filologiyasi fakulteti*

*2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Surxondaryo vohasining qipchoq lahjasida muloqot qiladigan aholi vakillari orasida kulinariya va oziq-ovqatga doir leksemalrning irrodiatsiyasi ko'rsatib beriladi. Binobarin, ushbu izoglassalarning leksik hamda areal lingvistik xususiyatlari dialektik jihatdan tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** irrodiatsiya, izoglossa, kulinariya, leksema, sheva.

**Annotation:** This article shows the irradiation of culinary and food lexemes among the representatives of the population who communicate in the Kipchak dialect of the Surkhandarya valley. Furthermore, the lexical and areal linguistic properties of these isoglosses were analyzed dialectically.

**Keywords:** irrodiation, isoglossa, culinary, lexema, dialect.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается распространение кулинарных и связанных с едой лексем среди представителей населения Сурхандарьинского оазиса, общающихся на кипчакском диалекте. В то время, когда речь идет о том, как это делается для того, чтобы услышать, как это может быть сделано.

**Ключевые слова:** иррадиация, изоглосса, кулинарный, лексема, диалект.

O'zbek tilini butun bir shajar , ya'ni daraxtga qiyoslasak, undan juda ko'p shoxlar -tilning turli sohalari kurtak yozgan. Bu yo'nalishlarning har biri o'zbek tilshunosligida shunday muhim o'rinni olganki, xususan, dialektologiya - shevashunoslik sohasi ham alohida ahamiyatga molik. Har bir sheva bir-biridan o'ziga xos izoglossalari bilan ajralib turadi. Shuning uchun ham o'zbek dialektologiyasida shevalarning lug'at tarkibi juda xilma-xilki, hatto leksemalarni alohida tarmoqlariga ajratish mumkin.

Shuningdek, o'zbek tilining dialektal leksikasi juda ko'p semantik guruhlarni hosil qiladi, ularning har biri shevaning leksikasida o'ziga xos o'rinni egallagan. Quyida turli sohalarning ba'zilarini keltiramiz:

1. Inson tana a'zolarini bildiruvchi leksemalar: mongnay- (peshana), put – (oyoq)
2. Qarindosh - urug'chilikka xoslangan so'zlar: bo'la – (xolavachcha), ena – (ona)
3. Tabiat hodisalari, hayvonot va o'simlik olamiga doir so'zlar: hova – (yomg'ir), jerbaqa – (buzoqboshi), nozboy – (rayhon)
4. Oziq-ovqatga doir izoglossalar: g'ilmindi

5. Xalq etnografiyasi: marosim va an`analar: is (yig'in), nonjiya – (marosimning bir turi)
6. Uy-ro'zg'or buyumlari, turarjoyga oid leksemalar: do'bag'a- (kosa), cherdak – (tom), teraska – (dahliz)
7. Fan-texnika, tibbiyat va ilmga xoslangan so'zlar: duxtir – (shifokor), aypat – (sensoeli telefon), pirillaq – (ventilyator)
8. Vaqt , masofa, makonga oid so'zlar: soratan – (yoz), trama – (kuz)
9. Turli kasbga xoslangan so'zlar: o'g'ariq , chikanka (dehqonchilik), gumnashka yoki lalab, cholka, zulpak (kosmetologiya) kurra, tona, mocha, hanggi (chorvachilik)
10. Rang bildiruvchi so'zlar: gulobi (pushti), sori (sariq)

Ushbu semantik guruhlar orasida o‘ziga xos jihatlari bilan alohida ajralib turadigan hamda butun dunyoda, viloyatlarda, tumanda, hatto qishloq va mahallalarda ham bir-biridan keskin farq qiladigan leksemalarni o‘ziga jamlagan soha - bu oziq-ovqat va oshpazlikdir. Ushbu birliklar turli dialektal zonalarda turfa versiyalarda uchraydi, bu hodisani o‘ziga xos irrodiaditsiya deb bemalol aytu olamiz.

Irrodiatsiya- hodisaning tarqalish tushunchasi bo’lib, arealning xarakterli belgilaridan biridir.<sup>1</sup>

Avvalambor, irrodiatsiya hodisasi butun bir viloyatlarni qamrab olsa-da, biroq izoglossalar bir hududda joylashgan tumanlar, hatto mahalla va qishloqlar orasida ham bir-biridan tubdan farq qilishi mumkin.

Izoglossa. Bu so’z lotincha so’z bo’lib, izo – teng, glossa-til degan ma’nolarni bildiradi va bir dialekt, lahja doirasidagi yoki qarindosh tillardagi fonetik, leksik va grammatik xususiyatlar mosligi darajasiga ko’ra tarqalishini ko’rsatadigan shartli belgidir.<sup>2</sup>

Shuning uchun quyida biz qipchoq lahjasi asosiy rol o’ynaydigan Surxondaryo viloyati tumanlari aro kulinariya va oziq-ovqatga doir ko’plab leksik birliklarni ko’rib o’tamiz.

## 1.Shavla

Go‘sht, sabzi-piyoz va guruch solib pishiriladigan bo‘tqasimon ovqat.

Shevadagi variantlari:

- Jalama - јälämä (Qumqo’rg’on)
- Yalama - yälämä (Denov)
- Shavla – sävlä , shuvala - šüvälä (Boysun, Darband)
- Shulla - šüllä (Qumqo’rg’on, Sherobod)

## 2.Kesgan osh



<sup>1</sup> O’zbek dialektologiyasi. X.Fayziyeva. "Kitobnashr". Termiz-2024. 68-b

<sup>2</sup> O’zbek dialektologiyasi. X.Fayziyeva. "Kitobnashr". Termiz-2024. 69-b

Qaynagan suvga ingichka kesilgan xamirni solib keyin qatiq qo'shiladigan va tayyorlanadigan ovqat.

- Keskan osh – keskän āš (Sariosiyo, Qumqo'rg'on)
- Shulla- šüllä (Qumqo'rg'on)
- Keskan shulla - keskän šüllä (Denov)
- Qatiqli osh - qätiqli āš (Qumqo'rg'on)

### 3. Guruch osh

Guruchni suvda qaynatib tayyorlanadigan va qatiq qo'shib iste'mol qilinadigan taom.

- Guruch osh - gürükč āš (Qumqo'rg'on)
- Guruchli shulla - gürükli šüllä (Denov)
- Oq shulla - āq šüllä (Sariosiyo)

### 4. Shilpildoq

Qaynagan suvga to'rtburchak qilib kesilgan yupqa xamir tashlab pishirib, sho'rvali qayla bilan tayyorlanadigan taom.

- Gulobito'ppa - güläbítöppä, momosholpilloq – māmāšälpülläq (Qumqo'rg'on)
- Ko'lobito'ppa - kóläbítöppä (Denov)
- To'ppa – töppä (Sariosiyo)

### 5. Baqlajon salat

Baqlajon qovurilib, alohida go'sht va kartoshka qovuriladi, so'ng sabzili salat bilan hammasi aralashtiriladi va ta'bga ko'ra ziravor hamda sarimsoq qo'shiladi.

- Baqlajon salat – bāqläžän sälät (Sariosiyo)
- Boyimjon salat - bāyimžän sälät (Denov)

### 6. Shirguruch — sut va guruchdan tayyorlanadigan quyuq taom.

- Shirguruch - širgürük (Qumqo'rg'on)
- Sirguruch - sirgürük (Sariosiyo)

### 7. Xonim

Xamirga qaymoq surtib, ta'bga ko'ra go'shtli, qovoqli, ko'katli qiyma solinib bu'g'da pishiriladigan taom.

- Xonim – xānim (Qumqo'rg'on)
- O'rama – örämä (Sariosiyo)

### 8. Holvaytar

Un va suv qaynatilib, shakar yoki novvot yo shinni solinib tayyorlanadigan quyuq taom, shirinlik turi.

- Holvaytar – hälväytär (Qumqo'rg'on)
- Holvordin – hälvärdin (Sariosiyo)
- Hayhay - häyhäy (Qumqo'rg'on)

### 9. Zardob

Qatiq yoki ivigan sutdan ajralib chiqadigan sarg‘ish suyuqlik.

- Sorisuv- sārisüv (Qumqo’rg’on)
- Zardob- zārdāb (Denov)

#### 10. Go’ja

Bug’doy tuyib, ivitiladi va deyarli barcha dukkakli mahsulotlar solinib qaynatiladi.

- Go’ja osh - göjä āš (Qumqo’rg’on)
- Ko’cha osh – köčä āš (Sariosiyo)

#### 11. Konservalangan pomidor salat

Pomidor to’g’raladi va bulg’or qalampiri, sarimsoq, qalampir, lavr bargi, ta’bga ko’ra rayhon yoki ziravorlar qo’shib qaynatiladigan va konservalanadigan taom.

- Zibravoy - zibravāj (Qumqo’rg’on)
- Zeravoy – zeravāj (Denov)
- Chimchim – čimčim (Sariosiyo)

#### 12. Sabzili salat

Sabzini qirg’ichdan chiqarib qalampir bilan aralashtirib tayyorlanadigan salat.

- Chimchi - čimči (Qumqo’rg’on)
- Sabzi salat - sābzi sälät (Sariosiyo)
- Chimchim – čimčim (Bandixon)

13. Ushbu ovqat piyoz qovurilib, un va suv bilan yaxshilab qaynatib tayyorlanadigan ovqat. ( Adabiy normada ushbu leksemani bildiragigan so’z yo’q)

- Ordob - ārdāb (Denov)
- Qizil atala - qızıl ätälä (Sariosiyo)

#### 14. Nonbosdi

Sho’rvaga non solinib tayyorlanadigan quyuq ovqat.

- Nonpalov – nānpälāv (Qumqo’rg’on)
- Nonto’shama - nāntöšāmā (Qiziriq)

#### 15. Moshkichiri

Sabzi, piyoz qovurilib, suv solinib qaynatiladi hamda mosh solinib dimlab tayyorlanadigan taom.

- Moshkichiri- māškiriči (Qumqo’rg’on)
- Moshtalla- (Qumqo’rg’on)
- Moshpakov- māšpälāv (Bandixon)

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagi dialektik birliklarni o’rganishning va ularni leksik, morfologik, grammatik jihatdan tahlil qilishning o’ziga xos sabab va maqsadlari mavjud. Avvalambor, dialektik birliklar, umuman olganda, dialektologiya, ya’ni shevani o’rganishning eng katta va muhim vazifasi – milliy tilni, milliyligimizni, o’zbek mentalitetini saqlab qolish va ularni avloddan avlodga, ayniqsa XXI asr

farzandlari – texnika va innovatsiyalar quli bo'lib qolishdek xavfdan qutqarish va ularga o'zligini anglatishdir. Shunday ekan dialektologiyani o'rganish nafaqat bugungi yosh avlod, balki kelajak avlod uchun eng muhim va birlamchi vazifa bo'lib qolajak.

#### **Foydalanigan adabiyotlar:**

1. O'zbek dialektologiyasi. X. Fayziyeva. "Kitobnashr". Termiz-2024
2. Areal lingvistika. N. Yo'ldosheva, N. Kurbannazarova. "Fan". Toshkent-2024
3. O'zbek xalq shevalari lug'ati. O'zbekiston SSR "Fan" nashriyoti. Toshkent – 1974.
4. O'zbek tili Surxondaryo shevalari (Fonetika, Leksika). S. Rahimov. O'zbekiston SSSR "Fan" nashriyoti. Toshkent – 19865.
5. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. A. Hojiyev. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent

